

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
FARG'ONA FILIALI

**“Harakatli o‘yinlarni o‘qitish uslubiyati”
moduli**

2 - MAVZU

(amaliy)

**Kichik, o‘rta, katta va maxsus guruhlarda sport
elementlarini o‘rgatish.**

dotsent Qambarov Orzubek Faxriddinovich

Reja:

- Sport elementlari bor harakatli o‘yinlarni o‘tkazilish.
- Harakatli o‘yinlarning tasnifi.



Bolalar xilma-xil o‘yinlar yordamida zaruriy harakat ko‘nikmalarini tez o‘zlashtirib olishlari mumkin, masalan, **yugurish, oshib o‘tish, muvozanatni saqlash**, yurishlar. Bu esa bolalarning yosh xususiyatiga mos keladi.

HARAKATLI VA SPORT O‘YINLARI

Har qanday sport o‘yini xalq harakatli o‘yinlaridan kelib chiqqan va uning eng yuqori shakli hisoblanadi. Buni biz basketbol, voleybol, gimnastika, suv polosi va boshqa o‘yinlar misolida kuzatishimiz mumkin.




Sport o‘yinlaridan farqi shundaki, harakatli o‘yinlar nisbatan murakkab bo‘lmagan o‘yin, faqatgina to‘plamiga ega bo‘lib, eng muhim o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘ynovchilarning faol harakati hisoblanadi va eng oddiy odatdagi harakatlarga asoslangan bo‘ladi, sakrash, uloqtirish, to‘siqlarni oshib o‘tish yoki murakkab bo‘lmagan vazifalarni bajarishdir.



Sport o‘yinlari-harakterli o‘yinni eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Ularda o‘yin qoidasi belgilangan bo‘lib, ular maxsus maydonni va jihozlarni talab qiladi. Sport o‘yini uchun harakterli tomoni shundaki, o‘yin jarayonida ma’lum **yurish-turish taktikasi** va harakatining murakkab **texnikasi** hisoblanadi.



Bu esa o‘yin qatnashchilaridan **maxsus tayyorgarlik**, mashg‘ulotni talab qiladi. Har bir sport o‘yinida ma’lum bir maydonni, jihozlarni, o‘yinchilarni **aniq soni hisobga** olinadi. Ko‘pchilik sport o‘yinida alohida o‘yinchilarini ixtisoslashtirishi zarur (hujumchilar, himoyachilar, darvozabonlar va boshqalarni.).





Sport o‘yinlari u yoki bu o‘yinga qattiq o‘rnatilgan **qoidaga** mos ravishda hakamlik qilishni talab qiladi, ular shuningdek, sport turi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun qachonki musobaqa (masalan o‘smirlar uchun) soddalashtirilgan qoida bo‘yicha o‘tkazilganda ham o‘shanda tayyorgarlik ko‘rgan o‘yinchilarga musobaqada ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi.




Sport o‘yini oldida harakatli o‘yining **ma’lum ustunligi** tushuniladi, chunki ular maxsus tayyorgarlik va qoidaga qat’iy vaqt belgilanganlik va xaddan tashqari texnika va mexanika bilan bog‘liq bo‘lmasligi zarur.

HARAKATLI O‘YINLARNI TANLAB OLISH


Harakatli o‘yinlarni tanlab olishda, eng avvalo instruktor kitob va qo‘llanmalarda berilgan o‘yinlarning jismoniy va psixologik ta’siri jihatlarini bilishi kerak.

Yana shuni unutmaslik kerakki, o‘yin vazifasi qo‘yilganda faqat harakatlarga mos bo‘lishi shart emas, balki harakatli o‘yinlar yordamida bolalar ruhiyatida bir-biriga yordamlashish, qo‘llab-quvvatlash xislatlarini tarbiyalash lozim.


Buning uchun **Qala ximoyasi, Pir etdi, Ikki yaxob, Mushuk keldi, To‘pni ol** va boshqa sport elementlari bor o‘yinlardan foydalansa bo‘ladi.




Kichik maktabgacha ta’lim tashkiloti yoshidagi bolalarga harakatli o‘yinni **qisqa va aniq qilib** tushuntirish kerak, chunki instruktor tomonidan barcha bayon qilingan harakatlarni tezda xuddi o‘ziday qilib qaytarishga harakat qiladilar.



Bolalar tushuntirishni oxirigacha eshitmasdan ular tez-tez o‘yindagi u yoki bu rolni bajarishga xohish bildiradilar.




O‘yin haqida ertak shaklida gapirib berishni bolalar **katta qiziqish bilan** qabul qiladilar va o‘yinda rolni ijodiy bajarishga, tasavvur etishni tarbiyalashda yordam beradi.



Bolalar jismoniy yuklamani olgandan keyin ularga dam olish kerak bo‘lganda yoki diqqat-e’tiborsizlikda, o‘yinni yaxshi o‘zlashtirish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya qilinadi.

«MERGAN» O‘YINI

Bolalar ikki jamoaga bo‘linib, yuzlari bir-biriga qaragan holda safga turadilar. O‘rtaga har bir jamoadan **6-8 m** uzoqlikda bulava qo‘yilgan bo‘ladi. Ishora berilishi bilan har qaysi qatordagi bolalar galma-galdan to‘pni bulavaga otib uni urib yiqitishga harakat qiladilar. Qaysi jamoada bulavani ko‘proq urib tushirgan bo‘lsa, o‘sha jamoada g‘olib hisoblanadi.



HARAKATLI O‘YINNI PEDAGOGIK TASNIFI

Pedagogik amaliyotda harakatli o‘yinni keng qo‘llanilishi, ularni tasnifini, guruhlarni tashkil etishni kamdan-kam tashkil etadi ya’ni xar hil pedagogik vazifani hal etish uchun ma’lum belgilar bo‘yicha ularni maqsadga yo‘naltirilgan holda tanlashni, ularni shu ish jarayonida qo‘yiladi.



E'tiboringiz uchun rahmat!

